



INGLIZ TILINI IKKINCHI TIL YOKI CHET TILI SIFATIDA O'RGATISH VA UNING TEXNIKASI

Ilmiy rahbar: N.N.Zubaydova

Muallif: Ismatillayeva Shahlo

Samarqand davlat chet tillari instituti 2-bosqich talabasi

E-mail: shahloismatullayeva@gmail.com

+998770279535

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilini ikkinchi til yoki chet tili sifatida o'rgatish uchun hozirgi kunda zarur bo'lgan sertifikatlar va ularning o'qitish texnikasi to'g'risida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: TESOL, TEFL, TESL, kommunikativ til, modul, texnika.

Kirish. Hozirgi kunda ingliz tiliga eng ko'p qo'llanadigan kommunikativ vosita sifatida qaraladi. 4000-5000 ta aktiv qo'llaniladigan tillar qatorida, ingliz tili xitoy tilidan keying ya'ni ikkinchi pog'onani egallagan. Dunyoning har bir burchagida ingliz tili ijtimoiy-siyosiy va ommaviy qamrovda keng qo'llaniladi. Bundan tashqari ingliz tili Birlashgan Millatlar (United Nations) va NATO (The North Atlantic Treaty Organization) kabi xalqaro tashkilotlar uchun birinchi til hisoblanadi. Umuman olganda biz ingliz tilini ikkinchi til sifatida yoki chet tilini ingliz tili qiyosida o'rganishni odatga aylantirmoqdamiz. Bu o'z-o'zidan tushunarliki, ingliz tili ona tili bo'lmagan insonlar va mamlakatlar uchun birinchi aloqa almashish vositasi bo'lib xizmat qilmoqda.

Ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rgatish birinchi tili ingliz tili bo'lmagan talabalarga ingliz tilini o'rgatishni anglatadi. Boshqa tillarda so'zlashuvchilarga ingliz tilini o'rgatishning umumiy atamasi, hozirgi kunda keng foydalanib kelinayotgan TESOLdir. Ingliz tilini ona tili sifatida so'zlashuvchilar ham boshqa tilda so'zlashuvchilar ham ingliz tili o'qituvchisi bo'lish uchun muvaffaqiyatli o'qitiladi va ingliz tilini bilish darajasini aniqlash uchun yozma va og'zaki testlar topshiriladi.

TESL, TEFL va TESOL bir ko'rinishdayoq bir xil atamalardek tuyulishi mumkin ammo bu atamalar sinfi va soniga qarab farqlanadi. TEFL - bu boshqa tilda so'zlashuvchilarga ingliz tilini o'rgatishni anglatadi va ish o'rinlari uchun minimal TEFL talabi 100 soatlik kursni tashkil qiladi ammo ko'pchilik o'quvchilarga 120 soatlik kurs tavsiya qilinadi. Bu kurs bitiruvchilari ko'pincha yuqori maoshli



o'qituvchi lavozimlarini egallashadi. TESL va TESOLni TEFLdan farqi shundaki, ko'pincha bu dasturlar chet elga ko'chib kelgan yoki oilasi uyda boshqa tilde muloqot qiladigan aholiga mo'ljallangan bo'ladi. TESOL esa TEFL va TESOLni o'z ichiga olgan yirik atama bo'lib, ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'qitish sohasida keng qo'llaniladi. Bundan ko'rinib turibdiki, ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rgatish eskirgan atama hisoblanadi, chunki talabalar faqatgina ingliz tilida emas, balki bir necha tillarda ham so'zlasha olishlari mumkin.

Kommunikativ tilni o'qitish (CLT), tilni o'rganishning ham vositasi ham yakuniy maqsadi sifatida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bir qator tanqidlarga qaramay, kommunikativ tilni o'qitishda xususan Yaponiya, Tayvan va Yevropa mashhur bo'lishda davom etmoqda. Hindistonda O'rta ta'limning markaziy kengashi ham bu kabi yondashuvni qo'llab kelyapti.

Kommunikativ tilni o'qitishda nutq, yozish va o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega, bu esa faqatgina o'quvchini passiv tinglashga to'sqinlik qiladi. Dogme xuddi shunday kommunikativ yondashuv bo'lib, u nashr etilgan darsliklarsiz o'qitishni rag'batlantiradi. Shu bilan birga o'quvchilar va o'qituvchi o'rtasidagi suhbat-aloqasiga e'tibor beradi.

Ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganishda asosiy texnikalar bular: aralashtirilgan va onlayn o'rganishdir.

Aralashtirilgan o'rganishni kompyutr yordamida til o'rganish deb ham atash mumkin. Aralashtirilgan ta'lim texnologiyasidan foydalanib, o'quvchilar turli multimedia vositalari orqali, o'qituvchi ishtirokisiz ham barcha ma'lumotlarni taqdim eta oladi.

Onlayn sinf- bu turdagi texnikada TEFL malakasini onlayn tarzda olish imkonini ham yaratib beradi. Barcha o'quvchilar Britaniya Kengashi yoki Cambridge TESOL kabi tashkilotlar tomonidan onlayn darslarga yozilishlari mumkin. TEFL uchun yagona umumiy akkreditutsiya organi mavjud emas, ammo xususiy notijorat kompaniyalar akkreditutsiya filiallarini yaratishlari va mijozlarni aldash uchun foydalanishlari ham bugungi kunda ma'lum. Onlayn o'quv texnikasida modul yaratilgan bo'lib modulda talabalar uchun kerak bo'lgan barcha o'quv materiallari joylashtirilgan. Talabalar qo'shimcha savollariga javob berish va ularga yordam berish uchun repititorga electron pochta orqali murojat qilish imkoniyatlari mavjud.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, ingliz tilini ikkinchi til yoki chet tili sifatida o'qitish va o'rganish tezlik bilan rivojlanayotgan dunyoda muammo emas, faqat buning uchun kerakli bo'lgan to'g'ri texnika va yo'nalishni bilish lozim.



References:

1. uz.m, Wikipedia.org.
2. Van.Hattum, Ton. Communicative Approach Rethought tonvanhattum.com.br
3. The Trend and Challenge for Teaching EFL at Tainvenese
Univsrsities' 'sage.pub.com.
4. Meddings, Luke „Teaching Unplugged: Dogme in English Language
Delta(2009)
5. A Guide to TEFL Accreditation” The Guardian.